

BALANDTEPA YODGORLIGINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI.

Najmiddinov Abdulbositxon

Antropologiya instituti

katta ilmiy xodimi

369abdulbosit@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21043161>

Annotatsiya: Markaziy Osiyoning eng zich aholi yashaydigan hududlaridan biri hisoblangan Farg‘ona vodiysi ilk o‘rta asrlarda o‘zining qulay tabiiy-iqlimiy sharoiti, strategik geografik o‘rni hamda keng madaniy aloqalari tufayli iqtisodiy jihatdan rivojlangan mintaqalardan biri bo‘lgan. Milodiy I ming yillik o‘rtalariga oid arxeologik moddiy topilmalar va yozma manbalar ushbu hududda ko‘p tarmoqli xo‘jalik tizimi shakllanganini tasdiqlaydi. Qadimgi Pop hududida joylashgan ilk o‘rta asrlar davriga oid Balandtepa va Munchoqtepa yodgorliklari Farg‘ona vodiysining eng yirik va muhim madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Shahar Sirdaryo bo‘ylab strategik ahamiyatga ega o‘tish joyida joylashgani sababli, mintaqaning iqtisodiy va madaniy hayotida katta rol o‘ynagan.

Kalit so‘zlar: Bob, Pop, Qirqhujra, Balandtepa, Munchoqtepa, shimoliy Farg‘ona

Аннотация: Ферганская долина, являющаяся одним из наиболее густонаселённых регионов Центральной Азии, в раннем средневековье была одним из экономически развитых регионов благодаря благоприятным природно-климатическим условиям, стратегическому географическому положению и широким культурным связям. Археологические материальные находки и письменные источники, относящиеся к середине I тысячелетия н.э., подтверждают, что в данном регионе сформировалась многоотраслевая хозяйственная система. Памятники раннесредневекового

периода Баландтепа и Мунчактепа, расположенные на территории древнего Попа, являлись одними из крупнейших и важнейших культурных центров Ферганской долины. Поскольку город располагался в стратегически важном переправочном месте вдоль реки Сырдарьи, он играл значительную роль в экономической и культурной жизни региона.

Ключевые слова: Баб, Пап, Киркхужра, Баландтепа, Мунчактепа, северная Фергана.

Annotation: *The Fergana Valley, one of the most densely populated regions of Central Asia, was, in the early medieval period, one of the economically developed regions due to its favorable natural and climatic conditions, strategic geographical location, and extensive cultural ties. Archaeological material finds and written sources dating to the mid-first millennium CE confirm that a multi-branch economic system had formed in this region. The early medieval monuments of Balandtepa and Munchoqtepa, located in the territory of ancient Pop, were among the largest and most important cultural centers of the Fergana Valley. Since the city was situated at a strategically significant crossing point along the Syr Darya River, it played a major role in the economic and cultural life of the region.*

Keywords: Bob, Pop, Kirkhujra, Balandtepa, Munchoqtepa, northern Fergana.

Pop (Bob) shahri miloddan avvalgi VI asr oxiri – V asr boshlarida zamonaviy Pop shahridan 2 km janubda joylashgan Qirqhujra yodgorligi o‘rnida tashkil topgan bo‘lib, u Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan va milodiy IV asr oxirlarigacha mavjud bo‘lgan. Bu vaqt ichida u bir necha marta suv toshqinlari tufayli vayron bo‘lgan va sel ostida qolgan. Har bir toshqindan keyin shahar deyarli butunlay qayta qurilgan. Milodiy IV asr oxiri – V asr boshlarida kuchli zilzila tufayli shahar vayron bo‘lgani aniqlandi. Bundan keyin seysmik hodisa odamlarni hududni tark etib 1 km g‘arbda joylashgan Balandtepa manzilgohiga ko‘chib o‘tishga majbur qilib qo‘yadi va u yerda keyinchalik yangi shahar barpo etiladi.

Qadimgi Pop shahri joylashgan G‘ovasoy vohasidagi dastlabki arxeologik tadqiqotlar Turkiston havaskorlari arxeologik to‘garagi a‘zosi, sharqshunos N. I. Veselovskiy tadqiqotlari bilan boshlangan. U birinchi bor ushbu vohada joylashgan Chodak va Chust hududlarida qurum va mug‘xonalarni o‘rgangan.

Pop hududini tadqiq qilish XX asrning 30-yillari oxirlaridan boshlangan bo‘lib, hududni arxeologik o‘rganilish uzluksiz ravishda olib borilmagan. Balandtepa va unga yaqin joyda joylashgan yodgorliklarni arxeologik o‘rganish Katta Farg‘ona kanali qurilishi munosabati bilan tashkillashtirilgan M.E. Masson boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqotlari bilan boshlangan.

Balandtepadagi keyingi izlanishlarni Namangan viloyati o‘lkashunoslik muzeyi xodimlari I. Malenkov va A. Shlezlar olib bordi. Farg‘ona vodiysining arxeologik o‘rganilishida A. N. Bernshtam boshchiligida 1946–1948 yillarda Pomir-Oloy va 1950–1952-yillarda Pomir-Farg‘ona ekspeditsiyasining o‘rni katta bo‘lib, ushbu ekspeditsiya tomonidan Ayritom, Munchoqtepa va Balandtepa yodgorliklarini ro‘yhatga olinadi va dastlabki tadqiqotlar olib borilgan. Keyinchalik M. Y. Voronets Munchoqtepada ham arxeologik tadqiqot olib borgan.

Shuningdek bu hududda arxeologik yodgorliklarni ro‘yxatga olishlar ham o‘tkazilgan. Xususan, 1950-yilda I. Axrorov ilk bor Namangan viloyati hududidagi arxeologik yodgorliklarni ro‘yxatga olish ishlarini amalga oshirgan bo‘lsa, 1958, 1959 va 1967-yilda Namangan o‘lkashunoslik muzeyi xodimi Y.G. Chulanov Shimoliy Farg‘ona hududida qidiruv razvedka ishlarini olib borgan.

O‘zR FA Arxeologiya instituti xodimi I. Ahrorov ham ushbu shahar xarobalarida arxeologik kuzatuv ishlari bilan shug‘ullanadi. 1964-yilda Yahyo G‘ulomov boshchilishida Farg‘ona arxeologik qidiruv guruhi Munchoqtepa va G‘arqiz (Qirqhujra) kabi antik davr shahar xarobalarini o‘rganadi.

Shuningdek, 1980-83 yillarda M. Isamiddinov rahbarligidagi guruh Namangan viloyatining barcha tumanlarida arxeologik-qidiruv razvedka ishlarini olib boradi va 1983-yilda Balandtepada tadqiqot ishlarini olib borgan. Vohadagi

tadqiqotlar Qadimgi Pop shahrining ilk o‘rta asrlardagi markazi Balandtepa va eng qadimiy qismi Qirqhujra yodgorliklarida davom ettirilgan. Zero, ushbu yodgorliklarning davri borasida turli xil taxminlar bo‘lib, dastlabki to‘liq bo‘lmagan xulosalar mavjud edi, xolos. Masalan, Balandtepa yodgorligi atrofidagi mozar qo‘rg‘onlarni o‘rgangan M. Y. Voronets Balandtepani X–XI asrlarga oid shahar xarobasi ekanligi haqidagi xulosaga kelgan.

Shu masalalarga oydinlik kiritish maqsadida O‘zR FA Arxeologiya insituti A. Anarbayev boshchiligidagi “Axsikent otryadi” 1987-yildan boshlab yodgorlikda keng ko‘lamdagi tadqiqotlar olib boradi. B. Matboboyev shaharning 5 ta nuqtasida stratigrafik shurflar soladi. Tadqiqot natijasiga ko‘ra, uch xronologik davri belgilangan: I davr – milodiy I–IV asrlar, II davr – V–VI asrlar, III davr – VII–VIII asrlar.

G‘ovasoy vohasining ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda o‘zlashtirilishi, hududda kechgan urbanizatsiya jarayonlarini o‘rganish maqsadida 2022 yildan boshlab A. A. Anarbayev boshchiligidagi “Axsikent otryadi” Balandtepa yodgorligida arxeologik qazuv ishlari olib bormoqdan. Bundan tashqari 2024 yildan boshlab Balandtepa va Munchoqtepa yodgorliklari O‘zbekiston-Xitoy qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o‘rganib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda Qirqhujra, Balandtepa va Munchoqtepa yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Shimoliy Farg‘onada qadimgi va ilk o‘rta asr shahar madaniyati izchil rivojlanganini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar natijasida Qirqhujra dastlabki shahar markazi sifatida miloddan avvalgi VI–V asrlarda shakllangan bo‘lsa, keyinchalik tabiiy ofatlar, ayniqsa zilzilalar va Sirdaryo toshqinlari ta’sirida aholi Balandtepaga ko‘chib o‘tganligi aniqlangan. Shu tariqa Balandtepa IV asr oxiri – V asrlardan boshlab yangi urbanistik markaz sifatida shakllanib, VIII asr oxirigacha faoliyat yuritgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Литвинский Б. А. *Курганы и курумы Западной Ферганы (раскопки, погребальный обряд в свете этнографии)*. Москва: Главная редакция восточной литературы, 1972. С. 141.
2. Массон М. Е. Экспедиция археологического надзора на строительстве Большого Ферганского канала // КСИИМК. Вып. 4. – М., 1940. – С. 52–54.
3. Бернштам А. Н. Отчёт о работе по раскопкам Касана в 1948 г. Архив ИИМК РАН. – Ленинград, 1958.
4. Матбабаев Б.Х. К истории культуры Ферганы в эпоху раннего средневековья. Ташкент: Tafakkur, 2009. 175 с.
5. Воронец М. Э. Археологическая рекогносцировка 1950 года по Наманганской области // ИАН УзССР. Вып. 5. Ташкент, 1951. – С. 93–97
6. Чуланов Ю. Г., Некоторые новые памятники северной Ферганы. СА, 1967, 2. С-143.
7. Касымов М. Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // История материальной культуры Узбекистана. Ташкент, 1966. – С. 28–35
8. Исамиддинов М.Х. Материалы к своду археологических памятников Наманганской области // Архив института археологии АН РУз. Ф.8, О.1, Д. 91. Самарканд, 1982.
9. Анарбаев А. А., Корженков А.М., Усманова М.Т., Нурматов У.А., Кубаев С.Ш., Корженкова Л.А., Караева З.А., Нажмиддинов А., Захидов Т., Юсупджанова У.А. Исторические сейсмические катастрофы на Ферганском участке Великого Шелкового пути //Геофизические процессы и биосфера Учредители: Институт физики Земли им. ОЮ Шмидта РАН. – 2022. – Т. 21. – №. 3. – С. 52-74.
10. Анарбаев А., Кубаев С.Ш., Нажмиддинов А. 2023 йилда Баландтепа ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар //

Археологические исследования в Узбекистане: 2023 год. Вып.16. Самарканд, 2024. С. 47-50.

11. Anarbaev A. A., Matbabaev B. Kh. An Early Medieval Urban Necropolis in Ferghana // Silk Road Art and Archaeology. Kamakura: Institute of Silk Road Studies, 1993/1994. Vol. 3. – P. 223– 237

12. Anarbayev A.A., Liu Tao, Ai Lijiang, Vang Xing, Baratov S., Najmiddinov A. Munchoqtepa yodgorligida 2024 yilda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar // Археологические исследования в Узбекистане: 2024 год. Вып.17. Самарканд, 2025. В. 41-47